

PAPER

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI MUSTAQIL BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH MODELINI ISHLAB CHIQISH VA ILMIY ASOSLASH

Shermatova Xurshida Karimovna^{1,*}

¹Qo'qon DPI doktoranti

*shermatova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarini mustaqil bilimlarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish va uning almiy asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortib borayotganligi sababli, musiqa pedagogikasida innovatsion texnologiyalar, interaktiv o'qitish usullari va mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada mustaqil ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlari va uni samarali rivojlantirish bo'yicha aniq takliflar berilgan.

Key words: bo'lajak musiqa o'qituvchisi, mustaqil bilim, pedagogik model, innovatsion texnologiyalar, interaktiv o'qitish, o'z-zini baholash, mentorlik, gamifikatsiya, O'zbekiston ta'lim tizimi.

Kirish

Musiqa ta'limi madaniy merosni asrab-avaylash va jamiat ma'nnaviyatini yuksaltirishda muhim o'rinn tutadi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Musiqa san'atini rivojlantirish va sohada kadrlar tayyorlash tizmini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida musiqa ta'limining rivojlanishi va uni innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilangan [1]. Professor N.T.Jo'rayev esa "Musiqa o'qituvchilar uchun mustaqil ta'lim olish ko'nikmalar ularning ijodiy salohiyatini kengaytiradi va zamonaviy pedagogika talablar bilan uyg'unlashishiga yordam beradi", - deya ta'kidlagan[2]. Darhaqiqat, mustaqil bilim olish – bu shaxsnинг o'z ehtiyojlari va maqsadlariga muvofiq mustaqil ravishda bilim egallash jarayoni bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bo'lajak musiqa o'qituvchilar uchun mustaqil ta'lim olish qibiliyati pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Zamonaviy ta'lim tizimi ta'lim oluvchilarni tayyor bilimlarni o'zlashtirishdan ko'ra, mustaqil bilim izlash, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish ko'nikmalariga o'rgatishni maqsad qilgan. Bungungi kundagi ta'lim jarayonlarida ham mustaqil o'qitish va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqot va amaliy ko'nikmalarda T.Jalolov, S.Hasanboyev, Q.Raimqulov, N.To'rayev, X.Yusupov, G'.Usmonov, R.Qurbanov, B.Saidov, D.Yo'ldoshevalarning xizmatlari katta.

Natijalar va muhokama

Ma'lumki, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining mustaqil bilim olish qibiliyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samarali natija beradi. Mustaqil bilim olish quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi – inson o'z bilimi asosida yangilik yaratishga o'rganadi.

Mas'uliyat va intizomni oshiradi – bilim oluvchi o'zining natiyalari uchun mas'uliyatni his qiladi.

Hayot davomida o'rganish tamoyilini shakllantiradi – insonning doimiy o'rganishga bo'lgan ehtiyoji mustahkamlanadi.

Zamonaviy kasbiy talablar bilan uyg'unlashadi – pedagogik faoliyatda doimiy ravishda yangiliklarni o'rganish zarur.

Professor A.I.Raximov ta'kidlaganidek, "Musiqa ta'limalda eksperimental yondashuv orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Chunki bunday yondashuv talabalarning mustaqil o'rganish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi" [4].

Ayniqsa, musiqa ta'limalda multimedya materiallaridan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Zamonaviy musiqa o'qituvchilar uchun interaktiv darslar, onlayn kurslar va virtual laboratoriyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa o'qituvchilar uchun mustaqil ta'limga ahamiyatini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

Ijodiy va texnik ko'nikmalarini mustahkamlaydi – yangi usullar va texnikalarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Pedagogik faoliyatga innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatini oshiradi – interaktiv dars usulubari va zamonaviy texnologiyalar dan foydalanish imkonini beradi.

Amaliy tajribani boyitadi – dars jarayonida yangicha yondashuvlarni qo'llashga yordam beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugungi kunda raqamli texnologiyalar mustaqil bilim olishni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bunda turli xil onlayn ta'limga platformalari mustaqil bilim olish imkoniyatini kengaytiradi va bu orqali o'z-o'zini baholash hamda tahlil qilish imkoniyatlari mustahkamlanadi. O'quvchilar o'zlarini uchun mos bo'lgan resurslarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Musiqa o'qituvchilarining mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi model va ilmiy asoslar taklif etishimiz maqsadga muvofiq deb o'yaymiz. Ushbu model bo'lajak musiqa o'qituvchilarining mustaqil ta'limga olish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan.

Mustaqil ta'limga jarayonining bosqichlari:

Bilim manbalarini tanlash – o'quvchilar mustaqil ta'limga olish uchun ishonchli va ilmiy manbalar (kitoblar, maqolalar, onlayn kurslar) bilan ishlashi kerak.

Reja tuzish va vaqtini boshqarish – mustaqil ta'limga rejalashtirish uchun individual ta'limga dasturi ishlab chiqish.

O'z-o'zini baholash va tahlil qilish – ta'limga natijalarini muntaзам baholab, bilimlarning chuqurligini tekshirish.

Amaliy qo'llash – o'rganilgan bilimlarni musiqiy amaliyot va pedagogik faoliyatga integratsiya qilish.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish – raqamli resurslar, multimedya darsliklari va onlayn platformalardan foydalanish.

Bo'lajak musiqa ta'limali o'qituvchilarining mustaqil bilim olishni rivojlantirishda rag'batlantiruvchi yondashuvlarni ishlab chiqish ham samarali deb o'yaymiz.

Interaktiv ta'limga platformalari yaratish – O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida musiqa o'qituvchilar uchun maxsus onlayn ta'limga platformalini yo'lga qo'yish (masalan, Moodle, Coursera kabi tizimlar).

O'z-o'zini baholash va refleksiya tizimi – talabalar o'z bilimlarini baholash uchun elektron testlar, portfolio va mustaqil ijodiy loyihibar yaratishi lozim.

Mentorlik tizimini rivojlantirish – oliy ta'limga muassasalarida musiqa o'qituvchilar uchun tajribali ustozlar tomonidan yetakchilik qilish tizimini yaratish.

Amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish – bo'lajak o'qituvchilar maktablarda yoki san'at markazlarida dars berish orqali o'z bilimlarini mustaqil rivojlantirishga undalishi kerak.

Gamifikatsiya (o'yinlashtirish) usullaridan foydalanish – musiqa nazariyasi va amaliy mashg'ulotlarni interaktiv va qiziqarli tarzda o'rgatish uchun onlayn o'yinlar va testlar ishlab chiqish.

Xulosa

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'limga tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda interaktiv va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali bu jarayonni yanada samarali qilish mumkin. O'zbekistonning musiqa ta'limga tizimida mustaqil o'qitish usullari faol joriy etilishi lozim. Pedagogika institutlari va konservatoriyalarda talabalarning individual ta'limga rejalarini ishlab chiqish amaliyotga joriy qilinishi kerak va mazkur jarayonda innovatsion texnologiyalar, raqamli vositalardan foydalanish; mustaqil o'qish jarayonini monitoring qilish va natijalarini baholash tizimi ishlab chiqish zarurati mavjud. Shuningdek, musiqiy ijodkorlik va pedagogik faoliyatini uyg'unlashtirish uchun nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash o'ta muhim omillardan sanaladi. Albatta, biz mulohaza yuritgan model va takliflar bo'lajak musiqa o'qituvchilarining mustaqil ta'limga olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. "Musiqa san'atini rivojlantirish va sohada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2019.
2. Jo'rayev, N. T. Musiqa ta'limalda mustaqil ta'limga olishning metodologik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020.
3. Karimov, D. A. Musiqa pedagogikasida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2017.
4. Raximov, A. I. Musiqa pedagogikasi: nazariya va amaliyot. –Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
5. To'rayev, R. M. Ta'limga jarayonida mustaqil o'qitish metodikasining samaradorligi. O'zbek pedagogika akademiyasi ilmiy to'plami, 2022. 6(1), 102-115.
6. Usmonov, G'. Y. // Musiqa ta'limalda innovatsion texnologiyalar va mustaqil o'qitish metodikasi. Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, 4(2), 45-58. 2021.